

# **MAHALLABAY ISHLASH VA TADBIRLIKNI RIVOJLANTIRISH AGENTLIGI LAOG (LOYIHANI AMALGA OSHIRISH GURUHI)NING GENDER MASALALARI BO'YICHA MUTAXASSIS LAVOZIMIGA OCHIQ TANLOV E'LON QILADI**

## **LAVOZIM MAJBURIYATLARI**

1. Loyiha menejeriga, loyihaning har bir ishtirokchilariga va texnik guruhga loyiha doirasidagi ijtimoiy (gender) jihatlarni tegishli tarzda hal etilishini ta'minlash uchun texnik yordam ko'rsatish.
2. Loyihani amalga oshirishda ijtimoiy (gender) yondashuvlarning integratsiyalashuvini ta'minlash.
3. Jinsi bo'yicha ajratilgan ma'lumotlarni toplashda texnik maslahat va yordam ko'rsatish.
4. Loyiha ishtirokchilarini milliy va mahalliy manfaatdor tomonlar va benefitsiarlarning gender tengligi va ayollar huquqlarini kengaytirish bilan bog'liq siyosatlari haqida xabardorligini va salohiyatini oshirish.
5. Loyiha jamoasi va tegishli manfaatdor tomonlar bilan yaqindan hamkorlik qilish orqali qishloq ayollarining ishtirok darajasini ta'minlash.
6. Loyihaning ijtimoiy (gender) ta'sirini monitoring qilish va baholash.
7. Shartnoma va boshqa hujjatlar shartlariga muvofiq gender rivojlanishiga yo'naltirilgan loyiha tadbirlarini amalga oshirilishini ta'minlash.
8. Gender xabardorlikni oshirish bo'yicha o'quv va amaliy mashg'ulotlar o'tkazish.
9. Har chorakda gender (ijtimoiy) masalalar bo'yicha loyihaning borishi to'g'risida hisobotlarni taqdim etish.

## **QO'YILADIGAN TALABLAR**

Ijtimoiy fanlar yoki tegishli sohalar bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lish, qishloq taraqqiyoti, qishloq xo'jaligi va iqlim o'zgarishi masalalarida gender mezonlarini hisobga olish bo'yicha kamida 5 yillik ish tajribasiga ega bo'lishi kerak.

Xalqaro moliya institutlar bilan o'zaro hamkorlik tajribasiga ega bo'lishiga ustunlik beriladi.

Xalqaro tashkilotlar tartib-taomillari bo'yicha bilim va tajribaga ustunlik beriladi.

Ingliz va rus tillarini yozma va og'zaki so'zlash, shuningdek, kompyuterda ishslash qobiliyati talab qilinadi.

## **ISH SHAROITLARI**

**Ish kunlari:** dushanba, seshanba, chorshanba, payshanba, juma. Dam olish kunlari: shanba, yakshanba.

**Ish vaqtি:** 09:00 dan 18:00 gacha.

**Ish joyi:** Toshkent shahri.

## **TASHKILOT TO'G'RISIDA MA'LUMOT**

**Manzil:** O'zbekiston Respublikasi Toshkent shahri Qoratosh ko'chasi 1-uy, 10-qavat.

**Telefon raqam:** +998712386933

**Elektron manzil:** [fcd.agency@mineconomy.uz](mailto:fcd.agency@mineconomy.uz) va [sredp.ade@gmail.com](mailto:sredp.ade@gmail.com)

**Qo'shimcha ma'lumot:** LAOG (Loyihani amalga oshirish guruhi) Xalqaro moliya instituti ishtirokida 2022–2026-yillar davomida respublikamizda qishloq tadbirkorligini rivojlantirishga qaratilgan loyihani amalga oshirish uchun tashkil qilinadi.

*Ma'lumotnomangiz (obyektivka, rezyume, CV)ni siz talabgor bo'lgan lavozimni aniq ko'rsatgan holda yuqorida keltirilgan elektron manzillarga yuborishingizni so'raymiz.*